SAMARQAND VILOYATI PAYARIQ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Payariq sh, Samarqand ko‘chasi, 52-uy.

2022 - yil 6 - yanvar 3-7-100-Q/22 Payariq tuman hokimligi

Payariq tumani Chelak shahri hududidagi yo‘llarda yo‘l belgilari o‘rnatish va yo‘l yotiq chiziqlari chizish to‘g‘risida

Payariq tumani Ichki ishlar bo‘limining 2021-yil 29-noyabrdagi 12/6039-sonli xatiga asosan, tumandagi Chelak shahri hududidagi yo‘llarda mavjud tirbandliklarni bartaraf etish, ushbu ko‘chalarda yo‘l harakatini tashkil etishni takomillashtirish hamda yo‘l harakati qatnashchilariga qulaylik yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan:

QAROR QILAMAN:

1. Payariq tumani Ichki ishlar bo‘limining 2021-yil 29-noyabrdagi 12/6039-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman IIB YXHB (I.Rasulov) hamda tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi bilan birgalikda:

Istiqlol ko‘chasi (4R-48 a/y) bo‘yicha:

- Istiqlol ko‘chasi (4R-48 avtomobil yo‘lining) Obod ko‘chasi bilan kesishgan chorrahasidan “Chelak-Samarqand” yo‘nalishi bo‘ylab, 1-qayrilib olish joyi (Palma kafesi ro‘parasigacha) bo‘lgan oraliq qismida yo‘lning har ikki yo‘nalishida qatnov qismi chekkasida transport vositalarini to‘xtashini ta’qiqlovchi 3,27 yo‘l belgilari o‘rnatish va 1,4 yo‘l yotiq chiziqlari chizish;

-Istiqlol ko‘chasi (4R-49 a/y)ning Obod ko‘chasi bilan kesishgan chorrahasidan “Chelak-Payariq” yo‘nalishi bo‘ylab Samarqand ko‘chasi bilan kesishgan chorrahasi (79-maktabgacha) bo‘lgan oraliq qismi chap tomonida qatnov qismi chekkasida transport vositalarini to‘xtashini ta’qiqlovchi 3.27 yo‘l belgilari o‘rnatish va 1.4 yo‘l yotiq chiziqlari chizish.

Navro‘z ko‘chasi bo‘yicha:

- Navro‘z va Istiqlol ko‘chalari (4R-48 a/y) tutashmasidan Navro‘z ko‘chasi bo‘ylab Gulzor ko‘chasi bilan kesishgan chorrahasigacha bo‘lgan oraliq qismida bir tomonlama harakatni tashkil etish va yo‘lning har ikki tomonidan transport vositalarini to‘xtashini ta’qiqlovchi 3.27 yo‘l belgilari o‘rnatish va 1.4 yo‘l yotiq chiziqlari chizish.

Gulzor ko‘chasi bo‘yicha:

-Gulzor va Navro‘z ko‘chalari kesishgan chorrahadan Gulzor ko‘chasi bo‘ylab Kattatepa ko‘chasi (4R-242 a/y) bilan kesishgan chorrahasigacha bo‘lgan oraliq qismida bir tomonlama harakatni tashkil etish va yo‘lning har ikki tomonidan transport vositalarini to‘xtashini ta’qiqlovchi 3.27 yo‘l belgilari o‘rnatish va 1.4 yo‘lga yotiq chiziqlari chizish.

Kattatepa ko‘chasi (4R-242 a/y) bo‘yicha:

-Kattatepa va Gulzor ko‘chalari kesishgan chorrahasidan Kattatepa ko‘chasi bo‘ylab, Istiqlol ko‘chasi (4R48 a/y)gacha bo‘lgan oraliq qismida bir tomonlama harakatni tashkil etish va yo‘lning har ikki tomonidan transport vositalarini to‘xtashini ta’qiqlovchi 3.27 yo‘l belgilari o‘rnatish va 1.4 yo‘l yotiq chiziqlari chizish.

Obod ko‘chasi (4R-48 a/y) bo‘yicha:

-Obod ko‘chasi (4R-48 a/y)ning Istiqlol ko‘chasi kesishgan chorrahasidan “Chelak-Mitan” yo‘nalishi bo‘ylab Agro bankning Chelak filiali binosi to‘xtash maydonchasi ro‘parasigacha bo‘lgan oraliq qismida yo‘lning chap tomonida qatnov qismi chekkasida transport vositalarini to‘xtashini ta’qiqlovchi 3.27 yo‘l belgilari o‘rnatish va 1.4 yo‘lga yotiq chiziqlari chizish vazifasi yuklatilsin.

3. Yo‘l belgilari o‘rnatish va yo‘l yotiq chiziqlari chizish vaqtida transport harakatini ta’qiqlovchi belgilar o‘rnatish va bajariladigan ishlar nihoyasiga yetgunga qadar nazorat olib borishni Payariq tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi boshlig‘i va tuman Ichki ishlar bo‘limi YHXB boshlig‘i I.Rasulovga

topshirilsin.

4. Mazkur qaror “Payariq hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining “Sampayariq.uz” rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Maxmudov zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi vazifasini vaqtincha bajaruvchi **Ollanov U. S.**